

ESHQOBIL SHUKUR IJODIDA XALQ QO'SHIQLARI OHANGI

Abduqahhorova Mohizar,

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Oripova Gulnoza,

Farg'ona davlat universiteti dotsenti,

filologiya fanlari doktori (DSc)

ANNOTATSIYA

Maqolada mustaqillik davri o'zbek she'riyatida xalq og'zaki ijodi an'analarining muhim o'rin tutishi yoritilgan bo'lib, ular o'ziga xos mahorat pog'onasi va takomil bosqichiga ko'tarilishda manba bo'lib xizmat qilishi Eshqobil Shukur she'rlari tahlili asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: folklor, xalq qo'shiqlari, ohang, an'ana, novatorlik.

ABSTRACT

The article highlights the important place of folk oral tradition in Uzbek poetry of the independence period, which is studied on the basis of the analysis of the poems of Eshqobil Shukur, which serve as a special masterpiece and a source in the ascent to the evolutionary stage.

Keywords: folklore, folk songs, melody, tradition, innovation.

АННОТАЦИЯ

В статье освещается важное место традиций устного народного творчества в узбекской поэзии периода независимости, которые служат источником для достижения определенного уровня мастерства и совершенства.

Ключевые слова: фольклор, народные песни, мелодия, традиции, новаторство.

KIRISH

O'zbek xalq og'zaki ijodining boy an'analari barcha davrlar adabiyoti uchun ham ta'sir va o'rganish manbai bo'lib kelgan. "Ma'lum-ki, folklor va yozma adabiyot munosabati o'z ichiga ijodkor asaridagi oddiy folklorizmdan tortib ijodiy metod munosabati, xalqchilik, milliylik va baynalmilallik, ijodkorning folklordan ijodiy foydalanish yo'llari va usullari, u yoki bu san'atkor mahorati yo'nalishi va unda folklor an'analarining ta'siri kabi masalalar bilan birgalikda badiiy shakl sohasidagi o'zaro ta'sir masalalarigacha qamrab oladi"¹. Xalqchilik va haqqoniylik, ifoda

¹Саримсоков Б. Фольклор ва ўзбек адабиёти муносабатларига доир изланишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1976, № 5. – Б. 85.

soddaligi va ravonligi, hayotiylik va jonlilik, obrazlilik va ixcham ifodaviylik xususiyatlari mustaqillik davri o'zbek she'riyatida g'oyaviy-estetik va badiiy ta'sirchanligi bilan o'zining ijodiy qudratini namoyon eta boshladi. Bu jihatlarni Erkin Vohidovdan Omon Matjongacha, Xurshid Davrondan Usmon Azimovgacha, Ulug'-bek Hamdamdan Iqbol Mirzogacha bo'lgan mustaqillik davrining turli avlod vakillari ijodida uchratish mumkin. Ma'lumki, har qaysi davrdagi ijodiy jarayon o'zidan oldingi bosqichning yutuq va kamchiliklaridan xulosa chiqarib, uning an'analarini yangi davr badiiy-estetik ideali va g'oyaviy niyati ta'sirida shakllantiradi. Lekin bu shunchaki mantiqiy davom etadigan adabiy hodisa emas, balki turli ijodiy ta'sir va adabiy-badiiy aloqa natijasida sintezlashuvchi jarayon sanalib, u o'ziga xos murakkabliklarga ham ega bo'ladi. Shuni e'tiborga olib, A.S.Bushmin ijodiy ta'sirning quyidagi ko'rinishlarini sanab ko'rsatadi: "...birinchi-dan, ta'sir etish vaqtiga qarab tasodifiy, vaqtinchalik va uzoq muddatli hamda doimiy ta'sirga; ikkinchidan, badiiy ijodning ta'sir etuvchi tomonlariga qarab, g'oyaviy, axloqiy, estetik, problematik, tematik, stilistik ta'sirga; uchinchidan, qo'zg'atuvchi sabablar (ichki yaqinlik va qarama-qarshilik, munozarali) tufayli kelib chiqadigan, aloqa xarakteri (bevosita, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) bilan bog'liq bo'lgan chuqur ijtimoiy yoki yuzaki stilistik, epigonlik, taqlidiy ta'sirga ajratib turli aspektlarda qaraydi"². Shu ma'noda mustaqillik davri o'zbek she'riyatida A.S.Bushmin sanab o'tgan xalq og'zaki ijodining g'oyaviy, axloqiy, estetik, problematik, tematik, stilistik, ichki aloqa xarakterining doimiy ta'sirini kuzatish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Eshqobil Shukur o'zbek she'riyatida o'z ovozigacha ega shoirlardan biridir. Uning ko'plab she'rlarida xalq qo'shiqlari ta'siri ifodasi kuzatiladi. Masalan, quyidagi she'rni olaylik:

Uch kunlik buzog'i o'lgan sigirni
Sog'ib olayotir befarzand xotin.
Tuyog'i zirqirab yig'laydi jonvor.
"Xo'sh-xo'sh"lab kuylaydi qayg'uli xotin:
"Quvshab yegin o'tingni,
Iyib bergin sutingni.
Sening bolang o'libdi,
Xurmo bolang bo'libdi.
Xo'sh-xo'sh, enam-ov, xo'sh"³.

²Бушмин А.С. Методологические вопросы литературоведческих исследований. –Л.: Наука,1969. – С. 176.

³ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 171.

She'rd a chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlaridan biri "Sog'im qo'shiqlari" tarkibidagi "Xo'sh-xo'sh"larning ta'siri sezilib turadi. Aynan, shoirning "Quvshab yegin o'tingni, Iyib bergin sutingni" satrlari sog'im qo'shig'idagi "Oralab yeding o'tingni, Iydirib bergin sutingni"⁴ satriga muvofiq keladi. Bundan tashqari, band oxirida kelgan va hayvonga murojaat maqsadida aytilgan "xo'sh-xo'sh" xalq qo'shig'idan ijodiy tarzda o'zlashtirilgan. Xalq og'zaki ijodidan o'zlashgan mazkur vositalar yordamida shoir o'zining badiiy-g'oyaviy niyatini ifodalagan.

Professor S.Mirzayeva folklordan ijodiy foydalanish masalasiga quyidagicha baho beradi: "Folklordan ijodiy foydalanish ko'pincha sintez xarakteriga ega bo'ladi. Chunki badiiy asardagi folklor unsuri shu asarning barcha komponentlari bilan o'ta darajada birikib ketadiki, uni tashqi tomondan ajratib olish mumkin bo'lsa ham, biroq mazmun jihatidan alohida ajratib bo'lmaydi. Demak, folklorga xos an'analarning badiiy adabiyotdagi o'rni ijodiy qayta ishlanish orqali belgilanadiki, ular yozma badiiy asarning zarur tarkibiy qismiga aylanib ketadilar"⁵. She'rd a shoir uzoq yillardan beri farzandsiz yashayotgan ayol, er obrazlarini sigir dardi bilan yonma-yon qo'llab, ham stilistik, ham semantik o'zaro yaqinlikni yaratgan. Natijada tasvirning badiiy ta'sirchanligi ortgan. Farzandsiz xonadon holati ham, eru xotin orasidagi munosabatlar ham kundan-kun sovuqlashib bormoqda. Bu she'rning "Hovlida huvillar besh xonali uy... Guvillab ko'payib borar chumoli... Uzoqlashib borar xotin bilan er, Bir yayrab kulishga yetmaydi holi" satrlarida namoyon bo'ladi. She'rdagi tobora ko'payib borayotgan chumoli tafsili orqali bolasiz sovuq xonadondan ko'ngli qolgan, non ushoqlarini tozalashga xafsalasiz xotin holati ifodalansa, so'nggi satrdagi o'g'ri mushuk obrazi kutilmagan xulosani yuzaga keltiradi:

Uch kunlik buzog'i o'lgan sigirning

Sutin sog'ib oldi befarzand xotin.

Ikki jonivor qalbi chayilgan sutni

O'g'ri mushuk ichib ketdi o'sha tun.

Tasvirdagi "tuyog'i zirqirab yig'layotgan jonivor", "xo'sh-xo'sh"lab kuylayotgan qayg'uli xotin", "bitta bola izlab tomorqada ivirsiyotgan er", "ikki jonivor qalbi chayilgan sutni ichib ketgan o'g'ri mushuk" obrazlari turli assotsiativ ma'nolarni yuzaga keltiradi. Bu esa voqelikdagi drammatizmning avj nuqtalarda ifodalanishiga xizmat qiladi. Ushbu o'rinda shoirning o'zbek xalq og'zaki ijodi manbasidan ijodiy foydalanish mahorati ko'zga tashlanadi. Yana bir jihatdan olib qaralsa, shoir folklor elementlarini shunchaki qayta ishlamaydi, an'anaga yangicha yondashadi. Buzog'i o'lgan sigir, farzandsiz xotin va o'g'ri mushuk obrazlarida

⁴ Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Кўп томлик. Бойчечак. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.304

⁵ Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида фольклор аънаналари. – Тошкент: Истиқлол, 2005. – Б.6.

dunyoning azaliy qoidasi, mavjudlik yaxlitligi yashiringan. O'lgan buzoqqa atalgan sutni sog'ib olgan ayol farzandsiz, biroq u o'z fojeasining mohiyatini bilmaydi. Shoir kengroq planda fikr yuritib, buzoq dog'ida kuygan sigir aynan o'lgan buzoqqa atalgan sutni sog'ib olayotgan ayolning holatiga uyg'unligini tasvirlaydi. Ikkisining qalbida ham farzand dog'i bor. Lekin o'g'ri mushuk ular dardidan bexabar. Demak, shoir ana shu o'rinda an'anaga yangicha yondashib, o'ziga xos badiiy-estetik funktsiya yuklagan.

XULOSA

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida xalq og'zaki ijodi an'analari muhim o'rin tutib, o'ziga xos mahorat pog'onasi va takomil bosqichiga ko'tarilishda manba bo'lib xizmat qilgan. Eshqobil Shukur ham o'z g'oyaviy niyati, asarning g'oyaviy-estetik va badiiy funktsiyasini kuchaytirishda xalqona an'analardan yangicha yondashuv asosida samarali foydalangan. Natijada she'r san'atining badiiy ta'sirchanligi yanada ortgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Саримсоқов Б. Фольклор ва ўзбек адабиёти муносабатларига доир изланишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1976, № 5. – Б. 85.
2. Бушмин А.С. Методологические вопросы литературоведческих исследований. –Л.: Наука,1969. – С. 176.
3. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 171.
4. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Кўп томлик. Бойчечак. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.304
5. Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида фольклор анъаналари. – Тошкент: Истиклол, 2005. – Б.6.
6. Oripova G. Ideological-Aesthetic Significance of Strophe in the Poetry of the Independence Period // https://www.researchgate.net/publication/391485993_Indonesian_Journal_of_Cultural_and_Community_Development
7. Oripova G. Characteristic and Descriptive Lyrics // https://www.researchgate.net/publication/391480109_Characteristic_and_Descriptive_Lyrics
8. Oripova G. Uzbek poetry and the world literature in the years of independence https://www.researchgate.net/publication/378679849_UZBEK_POETRY_AND_THE_WORLD_LITERATURE_IN_THE_YEARS_OF_INDEPENDENCE
9. Oripova, G. (2019). Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 82-86.